



FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 6 - sentabr

96-11-154-F/23

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28 va 73-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli hamda 2019 yil 8 yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida;

1. Beglar MFY hududidini obodonlashtirish maqsadida qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman mahalliy budjetining 2023 yil zaxira mablag‘lari hisobidan 104.0 (bir yuz to‘rt) mln.so‘m mablag‘ tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

2. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (M.G‘ofurov)ga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash hamda bajarilgan ishlar bo‘yicha sektor rahbari bilan kelishgan holda dalolatnomalar rasmiylashtirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xizirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.